

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA XAT-SAVOD CHIQRISHGA OID FANLAR  
EVOLYUTSIYASI****Nusratova Hamida Cho'liboyevna***Toshkent Kimyo xalqaro universiteti "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim  
metodikasi" kafedrasi dotsenti, PhD***Zamonova Laylo Muzaffarovna***Toshkent Kimyo xalqaro universiteti 2-bosqich magistri*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada qadim zamonlardan tortib to hozirgi kungacha bo'lgan turli tarixiy davrlarda ta'lim-tarbiyaning paydo bo'lish tarixi va taraqqiyoti, maktablarda ilk fanlarning joriy etilishi va darsliklar yaratilgani haqida ma'lumot berilgan. Bundan tashqari yosh avlodni tarbiyalash va o'qitish nazariyasi bilan amaliyotini qanday taraqqiy etib kelganligi, bugungi kundagi ulkan ta'lim-tarbiyaviy ishlarni, maktablarni jamiyat hayotida tutgan mavqei to'g'risida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *tarix, savod, darslik, qadriyat, piktografik suratlar, muassasa, madrasa, fan, maktab, usul, jazo, yodlatish, itoatkorlik, qullik, o'qitish nazariyasi.*

Ko'p yillik o'tmishimizning ko'zgusi bo'lgan ta'limimiz tarixi boy va juda qadimiylidir. Hududimizdagi manbalarning guvohlik berishicha, inson million yil avval paydo bo'lib, o'z avlodini tarbiyalashga, unga ta'lim berishga ehtiyoj sezib, ta'lim olishning o'ziga xos yo'llaridan borgan. Ta'limimiz tarixi qadim zamonlardan tortib to hozirgi kungacha bo'lgan turli tarixiy davrlarda ta'lim-tarbiya, maktab va pedagogika taraqqiyotini o'rganadi. Yosh avlodni tarbiyalash va o'qitish nazariyasi bilan amaliyotini qanday taraqqiy etib kelganligini bilmay turib, bugungi kundagi ulkan ta'lim-tarbiyaviy ishlarni, maktablarni jamiyat hayotida tutgan mavqei ilmiy ravishda hal qilib bo'lmaydi. O'tmishda yashab, ijod etgan ajdodlarimizning ta'limga nisbatan bildirgan ilg'or fikrlari, Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyatida maktab va xalq ta'limining rivojlanish jarayonini o'rganish, tanqidiy xulosalar chiqarish, pedagogik tafakkumning o'sishiga, pedagogik madaniyatning ortishiga olib keladi. Ta'lim tarixini mana shunday asosda tushunish tufayli turli ta'lim nazariyalari, maktablarning tuzilishi tarixi, fanlar joriy etilishi, tarbiya va ta'limning yo'lga qo'yilish mazmuni va metodlari jamiyatning moddiy hayot sharoiti bilan belgilanadi.

Xususan, uzoq o'tmishga qaraydigan bo'lsak, ajdodlarimiz yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda ijtimoiy tarbiya bilan birga aql va bilim olishga e'tibor qarata boshladilar. Xususan, tabiiy ofatlardan aholini xabardor qilish, odamlarni davolash usullari, maydonlarni o'lchash, sanash kabi bilimlarni o'rganishga zarurat tug'ildi va shu sababdan maxsus muassasalar tashkil etdilar. Bu muassasalarda faqat boylarning bolalari og'ir mehnatdan ozod qilinib alohida binoda o'qir edilar. Ular oddiy oilaning bolalari bilmagan bilimlarni o'zlashtirar edilar. Oddiy oila bolalari esa oilaviy sharoitdan kelib chiqqan holda mehnatga o'rgatilgan. Keyinchalik Markaziy Osiyoning qoyalarga tushirilgan suratlar saqlanib qolgan va bu suratlarining izohlaridan piktografik yozuvlar paydo bo'la boshlagan. Markaziy Osiyoda piktografik xat uzoq vaqt saqlanib rivojlana olmadi. Chunki harf bilan yozish usuli quddorlik jamiyati davlatlarida qo'shni mamlakatlardan Markaziy Osiyoga o'tib, tarqala boshladi. Shunday qilib

qadimgi ajdodlarimiz ta'lim jarayoniga kirib keldilar. O'z ta'lim tarixlarini yaratishga o'zlari asos soldilar. VII-VIII asrlardagi arab istilolari natijasida musulmon maktablarida arab tili alohida muhim fan tariqasida o'qitilardi, bilimlar ana shu tilda o'rganilar edi. Arab istilosidan oldingi davrda Markaziy Osiyodagi o'qitish tizimi to'g'risida ham bir yo'la taqqoslab, gapirib o'tamiz. Bu bilan biz yashab turgan joylarimizdagi ajdodlarimiz ham anoyi, sodda odamlar emasligiga, madaniyati rivojlanayotgan xalq ekanligiga amin bo'lasiz.

Xitoy sayyohi Syuan Szyan 630-yilda Samarqand haqida quyidagilarni yozadi: bu shaharda o'g'il bolalarning hammasi besh yoshdan boshlab yozish va hisoblashga o'rgatiladi, o'sha vaqtlarda savod chiqarish harf va so'zlarni yozishni o'rgatishdan boshlanar edi. Bolalar o'smirlik yoshiga yetganda esa savdo ishini o'rganmoq uchun savdogarlarning karvoniga qo'shilib, safarga jo'naydilar. Shu tariqa ular olgan bilimlari bilan mustaqil hayotga ham tayyorlanib borar edilar. Bunday ta'lim olish faqat o'g'il bolalarga mumkin edi. Qizlar uchun esa alohida ta'lim olish tashkil etilmagan.

Maktablarda o'quv-tarbiya ishlari juda sodda ya'ni faqat yodlatish usulida o'qitilgan. Arab alifbosini o'rganganlaridan keyin bolalarga qur'ondan parchalar o'qitila boshlangan. O'quvchilar o'zlari o'qib chiqqan arabcha matnning ma'nosini tushunmaganliklari uchun ular qur'ondan olingan parchalarni shu maqsadga maxsus moslashtirilgan kitoblar: "Haftiyak", "Chorkitob" bo'yicha yodlab olar edilar. Bunday o'qishga ikki-uch yil vaqt ketardi. Maktablarda bolalarni o'qitish shu bilan nihoyasiga yetardi. Bu maktablarda ham boshqa diniy maktablardagi kabi kaltaklash, tanaga beriladigan jazolar "tarbiya"ning "sinalgan" usuli hisoblangan. Atoqli tojik yozuvchisi Sadriddin Ayniy "Eski maktab" nomli asarida o'sha zamondagi maktablarda hukm surgan vahshiyona odatlarni ta'sirli qilib tasvirlab bergan. Bunda bolalarni qiynoqqa solishning dahshatli ko'rinishlari bayon qilingan. Domla o'quvchilarning "gunohkorligi" uchun ularni jazolar ekan, qo'llarini qayirib shikast yetkazgan, tovonlarini tilib, yaralariga tuz sepgan. Bunday qabih ta'lim-tarbiya tizimi hokim sinflarning ijtimoiy talabiga mos kelardi, chunki o'sha davrda maktabning asosiy vazifasi bolalar va yoshlarni dinga sabr-toqat bilan, ko'r-ko'rona itoat qilishga odatlantirishdan, yosh avlodni boylar, ruhoniylar va hokimlarning itoatkor malaylari qilib yetishtirishdan iborat bo'lgan. Maktablarda berilgan bilimlar shunchalik arzimmas va shunchalik turmushdan uzoq bo'lganki, o'quvchilarning ko'pchiligi maktabni bitirib chiqqandan so'ng sal vaqt o'tar-o'tmas yana savodsiz bo'lib qolaverar edilar.

Markaziy osiyoda dastlabki darsliklarning yaratilishi:

Arab bo'lmagan bolalarga islom dini asoslarini o'rgatishni maqsad qilib olgan darsliklar O'rta Osiyo maktablarida keng tarqalgan edi. Shulardan biri "Haftiyak". Bu kitobni Eron pedagoglari qur'on suralaridan ("yettidan birini") tanlab olib, yodlashga qulay bo'lishi uchun hajmini qisqartirib, taxminan XIII asrda tuzganlar. X-XII asrlarda islom dini ruknlarini fors-tojik tilida she'r va nasr bilan bayon qilgan "Chor kitob" paydo bo'ldi. Bu kitobni faqih va mudarris, mutasavvif shoir Xoja Sharofiddin Sanoiy yaratgan. O'rta asrlarda madrasalar va maktablarda asosiy darsliklardan biri sifatida o'qitilgan "Chor kitob" yoki boshqacha nomi "Chahor kitob" (To'rt kitob) ikki she'riy va ikki nasriy majmuadan iborat. Kitobda toat-ibodat, shariatning qonun-qoidalari: farz, sunnat, namoz va ro'za haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, unda qiziqarli voqea va hikoyatlar, sharqona donishmandlik namunalari bayon etilgan. "Chor kitob" o'zbek maktablarida ham o'qitilardi. XII asrdan boshlab islom dinini turkiy tillarda

yozilgan she'rlarda jumladan: XII asrda yashagan Ahmad Yassaviyning "Hikmat" nomli to'plamida, XVII asrda yashagan Kattaqo'rg'onlik eshon So'fi Olloyoming ikkita to'plamida va boshqa to'plamlarda ommalashtirish boshlandi. Bu ommalashtirish natijasida islom dinida yozilgan matnmi yodlab olish asosiy vazifa hisoblanardi. Buning uchun qadim vaqtlarda og'zaki o'qitish davrida yodlab olish uchun ishlab chiqilgan usullardan foydalanilardi. Hunar va tabiat to'g'risidagi darsliklar, asosan, og'zaki usulda paydo bo'ldi. Bu usta va shogird maktablarida paydo bo'ldi va shu tariqa og'zaki darsliklar paydo bo'ldi.

1917-yilga kelib, Turkistonda salgina yangilik kiritilgan bunday eski tipdagi maktablardan tashqari yuzga yaqin yangi usuldagi maktablar (ko'proq o'zbek maktablari) ochildi. Bu maktablarda tovush usuli yordami bilan savodga o'rgatibgina qolmasdan, balki sinf-dars tizimida ham olib borilar edi. Bu maktablarda o'quvchilar partalarda o'tirib o'qiydigan bo'ldilar, ularda o'qitiladigan fanlar qatoriga arifmetika, tarix va tabiyot fanlari kiritildi.

1970-o'quv yilidan boshlab, uzoq yillar foydalanib kelingan o'quv reja va dasturlarga zamon talablari hisobga olingan holda ba'zi yangiliklar kiritila boshladi. Boshlang'ich sinf, shuningdek, yuqori sinf o'quvchilarining ona tili, adabiyot, matematika, geografiya, ximiya, biologiya, tarix va jamiyatshunoslik fanlari o'qitila boshlandi va fanlar bo'yicha bilimlari tobora kengayib, chuqurlasha bordi. Yangi darsliklar va o'quv qo'llanmalari asosida o'qitish shunga imkon berdi.

Takidlash joizki, maktablarda ta'lim mazmunini o'zgartirishda va tarbiyaviy ishni yo'lga qo'yishda katta muvaffaqiyatlarga erishildi. Toshkent va Qo'qonda qiz bolalar uchun yangi usuldagi maktablar ham ochilgan edi. Ayni paytda diniy ruhga yil sayin barham berilib, eski maktabdan qolgan o'qitishdagi konservatizm, soxalistika va formalizm, ta'lim-tarbiya ishlaridagi quruqdan-quruq yodlatish, bolalami qo'rqitish kabi pedagogikaga zid usullar tobora yo'q qilina borildi. Yangi maktablarda dars ta'limning asosiy shakli bo'lib qoldi. Darsni o'tkazishga oid talablar oshirildi. Ko'p maktablarda o'quv ishlarining turli-tuman metodlari qo'llanila boshladi, o'quvchilarning bilim egallashga nisbatan aktivligi va qiziqishi oshdi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zunnunov A. va boshq. "Pedagogika tarixi". T. "Sharq". 2000-yil.
2. Azizxo'jayev A. "Davlatchilik va ma'naviyat". T., "Sharq". 1992-yil.
3. Bakirov F. "Chor Turkistonida sud, shariat va odat". T., 1967- yil.
4. Musaev A. TECHNOLOGIES FOR ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT //International Bulletin of Applied Science and Technology. - 2023. - T. 3. - №. 1. - C. 146-149.
5. Musaev A. TECHNOLOGIES FOR ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT //International Bulletin of Applied Science and Technology. - 2023. - T. 3. - №. 1. - C. 146-149.
6. Irisbayeva Y. Using " Cluster" Method //Eastern European Scientific Journal. - 2018. - №. 6.

7.Irisbayeva Y. Future Educators Professional Readiness to Interact with Preschool Children //Eastern European Scientific Journal. - 2019. - №. 1.

8.Irisbayeva Y. PROFESSIONAL READINESS OF FUTURE EDUCATORS TO INTERACT WITH CHILDREN OF PRESCHOOL AGE